



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-dekabr

237-5-70-Q/25

Konimex tuman hokimiligi

Konimex tumanidagi mavjud yerlarning yerdan foydalanuvchilar, yer turlari va toifalari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risida 2026 yil 1 yanvar holatidagi hisobotini tasdiqlash to'g'risida

Konimex tumandagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarining, yer turlari va toifalari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risida 2026 yil 1 yanvar holatidagi Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi Konimex tumani filiali tomonidan taqdim etilgan yillik hisobotni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi" ning 5-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi Konimex tumani filiali tomonidan taqdim etilgan Konimex tumandagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va toifalari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risida 2026 yil 1 yanvar holatidagi yillik hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi Konimex tumani filialining 2025-yil 30-dekabrda 01-15/1963-sonli xati inobatga olinsin.

3. Kadastr agentligi Konimex tumani bo'lim boshlig'i (B.Jo'raqulov) va Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi Konimex tumani filiali boshlig'i (Z.Karimov)ga

- ajratilgan yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazorat olib borish;

- barcha yerdan foydalanuvchilar tomonidan o‘zlariga ajratilgan yerlardan yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda foydalanishni ta‘minlash;

- qishloq xo‘jaligi yerlardan qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan ehtiyojlar uchun yer ajratilishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta‘minlash;

- tashkilot, korxonalar, fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va fuqarolar tomonidan davlat yerlarini o‘zboshimchalik bilan egallashga hamda yerlarni talon-taroj bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirilsin.

4. Kadastr agentligi Konimex tumani bo‘lim boshlig‘i (B.Jo‘raqulov)ga:

- yer qonunchiligiga amal qilgan holda tuman bo‘yicha yer kadastri hisobotlarini yuritishi ustidan nazorat o‘rnatish;

- sug‘oriladigan yerlardan noqishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun yer ajratish bo‘yicha qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslar to‘g‘risida tuman hokimligiga doimiy ravishda ma‘lumot taqdim yetib borish topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Axatov zimmasiga yuklatilsin.

Konimex tumani hokimi



Ro‘ziyev R.N

Konimex tumani hokimining
2025-yil 30-dekabrda
237-5-70-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Konimex tumanida mavjud yer egalari va
yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va
toifalari bo'yicha taqsimlanishi**

№	Yer toifalari fondi	Gektar hisobida
	Jamoa xo'jaliliklari va xo'jalik kooperativ (shirkat)lari	1 144 743
1	<i>Shundan:</i> Massiv va xo'jaliklarga qarashlisi	78 243
2	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy yaylov xo'jaliklari yerlari	1 066 500
3	Boshqa vazirlik, tashkilot va korxonalariga qarashlisi	11 901
4	Qishloq xo'jaligi ilmiy-tekshiruv muassasalari va o'quv yurtlari yerlari	1 092
5	Yordamchi qishloq xo'jalik korxonalarini yerlari	347,5
6	Fuqarolarning bog'dorchilik, sabzavotchilik, issiqxona, chorvachilik va boshqa yo'nalishdagi yerlari	24
7	Aholi yashash joylari	449
8	Sanoat, transport va boshqa maqsadlar uchun berilgan yerlar	13 967
9	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish maqsadlariga berilgan yerlar	
10	Tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar	118
11	O'rmon fondi yerlari	385 606
12	Gidrotexnik va boshqa suv xo'jalik inshootlari yerlari	34 472
13	Zaxira yerlar	2 857
	Jami yerlar	1 595 577
	Yer fondi Yer turlari bo'yicha taqsimlanishi	
1	Jami yekin yerlari	4 729
2	Shu jumladan sug'oriladigan	4 729
3	Ko'p yillik daraxtzorlar	145
	<i>Shundan:</i> bog'lar	80
	Uzumzorlar	39
	Tutzorlar	10
	Boshqa mevali ko'chatzorlar va ko'p yillik daraxtzorlar	16
4	Bo'z yerlar	448
5	Yayloqlar	1 233 612
	Qishloq xo'jalik Yer turlari jami	1 238 934
6	Tomorqa yerlar	660
7	Bog'dorchilik sabzavotchilik uyushmalari yerlari	
8	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	98
9	O'rmonzorlar	255 435

10	Boshqa yerlar	100 450
	Jami yerlar	1 595 577